

## TASDIQLAYMAN

Andijon davlat tibbiyot  
instituti rektori

M.M. Madazimov

“ ” 2023-yil

1-ilova

### “Yoz – men sevgan fasl” mavzusida insholar tanlovi

#### NIZOMI

##### I. Umumiy qoidalar

1.1. Tanlov ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni tarbiyalash hamda talabalarning o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli talabalarni dunyoqarashlarini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

1.2. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish ushbu Nizom qoidalari asosida o‘tkaziladi.

##### II. Tanlovni tashkil etish tartibi

2.1. Tanlov shartlari va baholash me‘zonlari.

- insho 12 varaqli daftarda 8-10 bet bo‘lishi;
- leksik, grammatik, imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilishi;
- mavzuga mos bo‘lishi;

2.2 Insholar qo‘lyozma shaklda yozib, skanerlangan PDF holatda qabul qilinadi. Insho matnining kamida 70-80 foizi muallifning shaxsiy fikrlarini aks ettirgan bo‘lishi lozim.

2.3 Insholar yakka mualliflikda tayyorlanadi, muallif ismi-sharifi, fakulteti va guruhi daftarning birinchi betida to‘liq yozilishi lozim. Tanlovga taqdim etilgan insholar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- mavzu mazmuniga mosligi;
- mavzuning yoritilganlik darajasi;
- leksik, grammatik, imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilganligi;
- xulosa;

##### III. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash.

3.1. Tanlov materiallari joriy yilning 20-avgust kuniga qadar qabul qilinadi. Ishchi guruh xulosasi asosida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan talababalar institut rektorining diplomi va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlaniriladi.

**TASDIQLAYMAN**  
**Andijon davlat tibbiyot**  
**instituti rektori**

**M.M. Madazimov**  
2023-yil



*2-ilova*

## **“Yozning ko‘rk-u tarovati” mavzusida fotosur‘atlar tanlovi NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. Tanlov talabalarining o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste‘dodli talabalarni dunyoqarashlarini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

### **II. Tanlovni tashkil etish tartibi**

2.1. **“Yozning ko‘rk-u tarovati” mavzusida fotosur‘atlar tanlovi** bo‘yicha taqdim etiladigan materiallar quyidagi mezonlarda baholanadi:

- mavzuning mazmun-mohiyati to‘laqonli ochib berilganligi;
- mavzuni yoritishda tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;
- mavzuni yoritishda o‘ziga hos ijodkorlik hususiyatlari ifoda etilganligi;
- mavzuning talaba-yoshlar hayotiga bog‘liqligi;

Tanlovga taqdim etiladigan fotosur‘atlarga ishlov berishda asl holati o‘zgartirilmagan holda (dasturlar orqali fotosur‘at yaratish mumkin emas) dasturlardan foydalanishlari mumkin.

*Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.*

### **III. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash.**

3.1. Tanlov materiallari joriy yilning 20-avgust kuniga qadar qabul qilinadi. Ishchi guruh xulosasi asosida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan talabalar institut rektorining diplomi va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlaniriladi.



**TASDIQLAYMAN**  
Andijon davlat tibbiyot  
institutining rektori

M.M. Madazimov

2023-yil

3-ilova

## **“Eng yaxshi taom tayyorlash” tanlovi NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar.**

1.1 Tanlov oila, yoshlik, insoniylik, tinchlik, do‘stlik, go‘zallik va ezgulikka chorlovchi g‘oyalar namoyishidan iborat.

### **II. Maqsad va vazifalar.**

2.1 Yoshlarimizni oilaga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash.

2.2 Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bo‘sh vaqtlarini unumli - mazmunli tashkil etish.

2.3 Iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni rag‘batlantirish, qo‘llab – quvvatlash, mahoratini oshirish hamda ularning o‘z iqtidorlarini namoyon etishiga ko‘maklashish.

### **III. Tanlovni tashkil etish tartibi**

3.1 “Eng yaxshi taom tayyorlash” tanlovida talaba o‘zi tayyorlagan taomni tayyorlanish jarayonini (dam olishga oila va do‘stlar bilan birga borganda yoki uy sharoitida va hokazo) videorolik holatida tayyorlash. Materiallar videorolik ko‘rinishida, elektron shaklda qabul qilinadi.

### **IV. Tanlov shartlari.**

4.1. “Eng yaxshi taom tayyorlash” tanlovi quyidagi me‘zonlar asosida baholanadi:

- ijro mahorati;
- taomning korinishi;
- videorolikdagi musiqali fon mavzuga mosligi;
- tomoshabinda tuyg‘u va tasavvur uyg‘ota olishi;
- videorolikni o‘ziga xosligi;

### **V. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash.**

5.1. Tanlov materiallari joriy yilning 20-avgust kuniga qadar qabul qilinadi. Ishchi guruh xulosasi asosida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan talababalar institut rektorining diplomi va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlaniriladi.

**TASDIQLAYMAN**  
**Andijon davlat tibbiyot**  
**instituti rektori**

M.M. Madarimov  
2025-yil

*5-ilova*

**“Eng yaxshi kitobxon talaba” tanlovi**  
**NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Tanlov talabalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini yuksaltirish, ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni tarbiyalash hamda talabalarning o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli talabalarni dunyoqarashlarini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

**II. Tanlovni tashkil etish tartibi**

2.1. Ishtirokchi talaba tomonidan “Men yoqtirgan asar” nomi ostida o‘zi sevib o‘qigan asar bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar – annotatsiya beriladi va bu videorolik ko‘rinishida tayyorlanadi

**III. Tanlov quyidagi me’zonlar asosida baholanadi**

3.1 Ishtirokchilarning asarga tayyorlangan annotatsiyasini baholashda ularning belgilangan asarni o‘qiganligi tekshiriladi hamda mohiyatini to‘g‘ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyatiga qarab baholanadi.

**IV. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash.**

4.1. Tanlov materiallari joriy yilning 20-avgust kuniga qadar qabul qilinadi. Ishchi guruh xulosasi asosida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan talababalar institut rektorining diplomi va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlaniriladi.



## TASDIQLAYMAN

Andijon davlat tibbiyot  
instituti rektori

M.M. Madazimov

2023-yil

4-ilova

### “Institut qahramoni” mavzusida videorolik tanlovi

#### NIZOMI

##### I. Umumiy qoidalar

1.1. Tanlov ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni tarbiyalash hamda talabalarning o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega, vatanparvar va iste’dodli talabalarni dunyoqarashlarini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

##### II. Tanlovni tashkil etish tartibi

2.1. Yozgi ta’tilda qilgan yaxshi ishlarini (*masalan: qiyin vaziyatga tushib qolgan insonga yordam berish, hayvon va hasharotlarni qutqarish, atrof muhit tozaligiga ko‘maklashish, insonlarga kayfiyat ulashish va hokazo*) videorolik qilib tayyorlash.

2.2. Videoroliklar quyidagi me’zonlar asosida baholanadi:

- g‘oyaning originalligi va dolzarbligi;
- mavzuga mosligi;
- g‘oyaning yangiligi va antiqaligi;
- ijodiy ish baholanishi jarayonida musiqali fon, video effektlardan foydalanganligi, tomoshabinda tuyg‘u va tasavvur uyg‘ota olishi, kreativlik, ishning uslubiy jihatdan o‘ziga hosligi, badiiy va texnik darajasi inobatga olinadi.

2.3. Videoroliklarga qo‘yiladigan talablar:

- davomiyligi 3 daqiqa;
- formati MPEG-4;
- lavha formati 720 r (1280x720) yoki 480r (854x480);
- hajmi 40 megabaytgacha bo‘lishi kerak.

Videorolikni su‘ratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur va uskunalardan foydalanish ishtirokchi (ijodiy ish muallifi)ning ixtiyoriga havola etiladi.

Videorolik janri (reportaj, videoklip, animasion syujet va boshqalar)ni ishtirokchining o‘zi belgilaydi.

##### III. Tanlov g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash.

3.1. Tanlov materiallari joriy yilning 20-avgust kuniga qadar qabul qilinadi. Ishchi guruh xulosasi asosida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan talababalar institut rektorining diplomi va qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlaniriladi.